

Shuxrat Sotvoldiyev

LEKSIKOLOGIYA

Bilib oling. Leksikologiya bo'limi so'zlarning atash ma'nosini, tushunchasini o'rganadi.

SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

Bilib oling. So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra sinonim, omonim, antonim va paronim so'zlarga bo'linadi.

Qo'shimcha fikr: Iboralar morfologik (so'zlari ajratib olinib) tahlil qilinmaydi, chunki ular yaxlit bitta tushuncha, ma'nosi bir so'zga teng, degan o'rinli qarashlar bor.

SINONIMLAR. SINONIMIK QATORDA BOSH SO'Z

Bilib oling. Bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so'zlarga sinonim (ma'nodosh) so'zlar deyiladi. Bu kabi so'zlarning bir qatorga jamlanishiga sinonim (ma'nodosh) so'zlar qatori deb ataladi. Masalan: g'alaba, zafar, yutuq. Qatordagi ma'nosi hammaga tushunarli bo'lgan, nutqda faol qo'llanadigan, adabiy shakl sanalgan so'z bosh so'z deb yuritiladi.

M: achchiq, nordon, taxir, sho'r

1. Betamizda bet bo'lmas, bezorida - uyat.
2. Qizil yuzing qizartirma, uzun tiling qisqartir.
3. Afting qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama.
4. Kulgi chehra yoritar.
5. Odamning yuzi quyoshni uyaltirar.
6. Turq boshqa-yu, ko'z boshqa.
7. Chiroy husn-u jamolda emas, fazl-u kamolda.

Izoh: Bosh so'z → Yuz

OMONIMLAR. NUTQDA OMONIMLARDAN FOYDALANISH

Bilib oling. Aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlar omonim so'zlar deyiladi. Ular shakldosh so'zlar deb ham yuritiladi. Masalan: un (tovush), un (mahsulot), un(moq) (fe'l).

→ Omonim so'zlar bir qarashda ko'p ma'noli so'zlarga o'xshab ketadi, ammo ularni farqlash kerak. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zni o'z va ko'chma ma'noda qo'llashdan hosil bo'ladi: burun (yuz qismi) – burun (choynakning burni). Baribir bitta so'zning turli ma'nolari: biri o'z ma'nosida, yana biri ko'chma ma'noda qo'llangan.

→ Omonimlarda turlicha ma'nolar nazarda tutiladi: burun (yuz qismi) — burun (avval).

Toshni kesa olmas pichoqning dami(tig'i),

Pok tanga o'tmaydi saraton dami(havosi, nafasi),

Ilm va hunarga bag'ishla o'zni,

G'animat yoshlikning har o'tgan dami(lahzasi). (A Shukurov)

Quyidagi so'zlar ma'nosiga e'tibor bering. Omonimlik hosil qiling. Masalan: 1. Karam - saxovat.

2. Karam - poliz ekini.

Asar		Soz	
Adash		Son	
Bo'y		Text	
Tuz		Ter	
Yeng		Un	
Yot		Chakka	
Och		Qil	
Mushak		Qovoq	
Palla		Shim	

Mashq. Shakldosh so'zlarni toping. → Davom ettiring.

1. Endigina bargak yozgan tolzordan mayin shamol esdi. Otaxon patnisga bir hovuch bargak, bir siqim mayiz, 5-6 ta yong'oq qo'ydi. 2. O'ng qo'li bilan asta peshanasidagi terni arttdi.

Abdurahim pishgan qirmizi olmalarni savatga terdi. 3. Koinot bizga o'z sirlarini ochmoqda. Boshqa sayyoradan kelgan sirli mehmonlarning kosmik kemasi kumushsimon sir bilan qoplangan edi. 4.

Ahmad o'zga sayyoralik — yot odamlarga termilib qoldi. Ominaxon darslarini tayyorlab

bolgach, uyquga yotdi.

ANTONIMLAR

Bilib oling. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar antonim so'zlar deyiladi. Ular zid ma'noli so'zlar deb ham yuritiladi. Masalan: baland - past, yangi - eski, kecha - kunduz kabi.
→ Antonim so'zlar birgalikda qo'llanib, yangi so'z hosil qilishi mumkin.
Masalan: yosh-u qari → barcha; achchiq-chuchuk → ovqat turi; uzoq-yaqindan → hamma yoqdan.

Mashq. Quyidagi maqollarni o'qing va davomida kelgan savollarga javoblar yozing.

Antonim so'zlarni toping.

1. Oy tunda kerak, aql - kunda. Agar uning o'zi aqlsiz bo'lsa-chi? 3. Yomon kelsa - buzar, yaxshi kelsa - tuzar. Har ikkalasi ham kelmasa-chi? 4. To'g'ri boshni egri qilich kesmas. Boshning o'zi qing'ir bo'lsa-chi?

PARONIMLAR

Bilib oling. Talaffuzi va yozilishi bir-biriga juda yaqin, lekin ma'nolari farqli bo'lgan so'zlar paronimlar deyiladi. Masalan: yod - yot, bop - bob, xalos-xolos kabi.

Xiyla hiyla tana ta'na aro oro
biroz makr gavda dashnom orasida pardoz

Mashq. Matnda ajratilgan so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

Ancha yillar avval katta nufuzi — obro'-e'tibori baland bir fabrikaning direktori ikki xodimini Afrika bozorlarini o'rganish uchun yubordi. Birinchi xodim bu yer aholisini sinchiklab o'rgandi va xo'jayiniga axborot berdi: "Bu yerdan bizga hech qanday foyda yo'q, chunki nufusi (aholisi) juda qashshoq ekan, yalang oyoq yurarkan. Topgan foydamizdan ham judo bo'lmaylik". Birinchi xodim bilan yondosh yolga chiqqan ikkinchi xodim masalaga o'zgacha yondashdi. U qaytganida bergan ma'lumot quyidagicha edi: "Biz oyoq abzali tikamiz. Imkonni qo'ldan bermaslik kerak, shoshilaylik. Biz uchun afzal tomoni shundaki, odamlarning poyabzali yo'q ekan".

Izohlar:

→ nufusi — aholisi

→ nufuz — obro'-e'tibori

→ yondosh — yonma-yon degani

→ yondash — yaqinlash degani

→ abzal — ot-eshakning egar-jabdug'i degani

→ afzal — yaxshi degani

Mashq. Azim - azm, borlik- borliq, yoq - yog', zamin - zomin, urush - urish, xat - had, hol - xol, chakka - chekka, Bank-banka, bob-bop, gaz-g'oz, davo-da'vo, daha-daho, faqir-paqir, soda-sodda, siqim-sig'im, undash-undosh, uquv-o'quv, ham-xam so'zlari bildirgan ma'nolarni aniqlang,

MA'NODOSH VA SHAKLDOSH SO'ZLAR USLUBIYATI

So'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish har qanday nutqning aniq va ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi. Bunda so'zning leksik ma'nosi bilan bir qatorda uning uslubiy bo'yog'ini ham yaxshi bilish zarur. So'zning u yoki bu uslubga xoslanganligi va so'zdagi salbiy yoki ijobiy munosabat ifodasini bilmasdan turib, uni to'g'ri va maqsadga muvofiq holatda qo'llab bo'lmaydi. Qaysi uslub bo'lishidan qat'i nazar, nutq tuzuvchi buni inobatga olishi lozim. Uslubning raso bo'lishida til birliklari orasidan eng muvofiq'ini tanlash hal qiluvchi ahamiyatga molik. Chunki tilda o'zaro ma'nodoshlik, shakldoshlik va boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan birliklar talaygina bo'lib, ular tilning o'ziga xos boyligi, ranginligini yuzaga keltiradi.

Ma'nodosh so'zlar bir-biridan muayyan uslubga xoslanishi va emotsional-ekspressiv bo'yog'iga ko'ra farqlanadi. Masalan, yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol, oraz, uzor, ruxsor ma'nodoshlik qatorida "yuz" so'zi biron-bir uslubga xoslanmagan, bet, aft, bashara, turq so'zlarida

esa salbiy bo'yoq darajalangan holda o'z ifodasini topgan, ko'proq so'zlashuv uslubida ishlatiladi; chehra, jamol so'zlarida ijobiy bo'yoq mavjud bo'lib, ular, asosan, badiiy uslubga xoslangan; oraz, uzor, ruxsor so'zlari esa eskirgan va ko'proq kitobiy uslub doirasida qo'llanadi. Ma'nodosh so'zlarning uslubiy imkoniyatlari juda katta bo'lib, ular nutqning jozibali, ta'sirli va aniq bo'lishiga ko'maklashadi.

Shakldosh so'zlar va unga yondosh paronimlarning ma'nolarini yetarli darajada farqlash, har bir so'zning o'z ma'nosiga muvofiq qo'llay bilish barcha uslublar uchun zarur. Ayni paytda bunday so'zlar asosida turli qochirim, kinoyalar, so'z o'yinlari kabi nutqni bezovchi usullar ham yuzaga keltiriladi. Mumtoz adabiyotdagi tuyuq janrining asosini aynan shakldosh so'zlar tashkil etadi.

Mashq. Shakldosh so'zlarni topib, izohlang.

1. Quyosh chiqdi, gul yaprog'iga Tunda qo'ngan shabnam aridi. Qon yugurdi olyonog'iga, Bargi g'ubor – changdan aridi.
2. Bolangga ham, uyingga ham qara, ham ishla, ham dam ol...
3. Dilda takrorlab otin, tilab umr-u davlatin, Soyasi bo'lib tag'in Saida zor o'tdimi?
4. Shirmonxon jilovi bo'sh bo'shligiga qaramay, hamon o'rnida qimirlamay turgan otga chaqqonlik bilan mindi-da, jadal qamchi bosdi.
5. Shirmonxon ixtiyoriga bo'ysunmay oqayotgan ko'z yoshlarini dastro'moliga artar ekan, yana xatga termildi.
6. Yosh bo'lib, yoshligimni bilmadim.
7. Mana bu bolalarga tut qoqib bering.
8. Bo'ldi, o'zingni tut.

Mashq. →Davom ettiring.

1. Do'st, o'rtoq, ... _____
2. Chiroyli, go'zal, ... _____
3. Ko'p, ancha, ... _____
4. Tushunmoq, anglamoq, ... _____

Mashq. Qavs ichida berilgan paronim so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring va ularga izoh bering.

1. Hunarni asrabon netkumdur (oxir, axir, oxur), Olib tufroqqamu ketkumdur (oxir, axir, oxur).
2. Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz (ganch, ganj) ila.
3. Quyoshlig' istasang, kasbi kamol et, Kamol (kosib, kasb) etarsen, bemalol et.
4. Har kishikim, birovga qozg'ay (chog', choh), Tushgay ul (chog', choh) aro o'zi nogoh.

SINONIM SO'ZLAR USLUBIYATI

Bilib oling. Sinonim birliklarning ma'nosi yaqin bo'lsa-da, ammo bir xil emas. Ular ifoda bo'yog'iga ko'ra farqlanadi. Ba'zilarida bo'yoq kuchli, boshqasida kuchsiz (bo'sh –latta), ba'zilarida ijobiy, ayrimlarida salbiy (kulmoq –tirjaymoq) bo'ladi.

→ Sinonimlar uslubiy xoslanganlik jihatidan ham o'zaro farqlanadi. Sinonimlar birikuvchilarni (atrofidagi so'z(lar)ni) ham tanlaydi. Masalan, stolning yuzi deyish mumkin, ammo stolning basharasi deb bo'lmaydi. Ayrim sinonimlik munosabati barqaror (kishi –odam – inson), ayrimlari nutqiy (go'zal – oy – gul) hisoblanadi.

ANTONIM SO'ZLAR USLUBIYATI

Bilib oling. Sinonimlar va antonimlar o'zaro zich bog'langan. Ya'ni antonim so'zlarning har biri sinonimiga ega bo'lishi mumkin: aka (birodar) - uka (ini) kabi. Bu ularning turli uslubga xosligidan kelib chiqadi. Til birliklarining uslubiy xoslanganlik qonuniyati sinonimlar va antonimlarni o'zaro bog'lab turadi.

Mashq. Berilgan so'zlardan moslarini topib gaplarni tugallang.

→Davom ettiring.

1. Biz qanchalik ... (kam) bilsak, shunchalik ... (ko'p)taxmin qilamiz. (G. Shou)

- 2.... (____) chehra ortida ... (____) qalb borligini bilib bo'lmaydi. (Koreys xalq maqoli)
 3. ... (____) ehsondan qochar, ... (____) mehmondan qochar. (O'zbek xalq maqoli)
 4. Dushmaningga yengilganing uning ... (____)ligidan emas, sening ... (____) ligidan dalolatdir. (U. Xayyom)

OMONIM SO'ZLAR USLUBIYATI

Bilib oling. Omonim so'zlar, odatda, lug'atlardagina (nutq tarkibiga kirmagan holatda) omonim bo'lib turadi. Ular shaklan bir xil bo'lsa-da, bitta so'z emas. Omonim so'zlarning har biri nutqda biror grammatik shakllarni qabul qiladi va shundagina ularning qaysi ma'noni ifodalashi ayon bo'ladi. Agar shunday bo'lmasa, omonimlarning ma'nosini anglab bo'lmay qolar va bu ayrim fikrni tushinishda chalkashliklarni keltirib chiqarar edi. M: Tosh. 1. Toshni otdi. 2. Sut toshdi.
 → She'riyatda omonim so'zlar turkiy tuyuq janri uchun xizmat qiladi.

PARONIM SO'ZLAR USLUBIYATI

Bilib oling. Odatda, og'zaki nutqda talaffuzi bilib-bilmay aralashtiriladigan so'zlar paronimlar deyiladi. Ba'zan ular yozma nutqqa ham ko'chib, nutqiy g'alizlikni yuzaga keltiradi, jumla ma'nosiga putur yetkazadi. Demak, paronim so'zlar savodxonlikka kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ularning maxsus lug'atlari yaratilgan.
 → Paronim so'zlarning talaffuzida ehtiyotkorlik shart.

Mashq. Matn bilan tanishing. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi paronim so'zlardan mosini tanlang.
 FOJIA NIMA?

Hayotimizda biz ko'rmagan yoki bilmagan turli ... (hil, xil) voqea- hodisalar, jumladan, fojialar ... (ham, xam) yuz berib turishi mumkin. Hayotni tekis, silliq yo'llardan iborat, deb o'ylash xatolik, ... (yana, ya'ni) nodonlikka yaqin bo'lgan fojiadan boshqa narsa emas. Shunday dahshatli hodisa ham sodir bo'lishi mumkinki, bundan ba'zilar: „Endi bu ... (yog', yoq)ini davom ettirishdan ma'no yo'q“ ... (qabil, qabul)ida umidsizlikka tushadilar. Yo'q, bu noto'g'ri! Siz katta xato qilyapsiz. Buyuk davlat arboblardan biri: „To'qson to'qqiz foiz mag'lubiyatga uchraganingizda ham kurashni aslo to'xtatmang“, degan ekan. 1914-yilning dekabrda, o'z davrining ... (nufusli, nufuzli) olimi Tomas Edison oltmish yetti yoshga to'lganida, uning laboratoriyasi butunlay yonib ketadi. Bu falokat olimga ... (naq, naqd) uch yarim million markaga tushadi. Laboratoriya bor-yo'g'i 400 ming dollarga sug'urta qilingan edi, ... (xolos, xalos). Hammasidan ham og'iri – butun amaliy-ilmiy tadqiqot va tajribalar yonib ... (kul, ko'l) bo'lgandi. Uning ... (ilk, ilik) ilmiy maqolalari, ... (so'ngi, so'nggi) kitob va qo'lyozma esdaliklari ham kuyib ketgan edi. Xullas, uning hayoti davomida erishgan barcha yutuqlari barbod bo'lgan, yo'qotishlari ... (qimmat, qiymat)i cheksiz edi. Xotini Edisonni laboratoriya narirog'idan topadi. U yong'inni kuzatganicha xotirjam turardi. Shu holatda xotinini yoniga chorlaydi. Ayoli Edisonga yaqinlashganda u kulimsirab shunday degan ekan:

– Sen mana bunga yaxshilab qara. Bunday manzarani hech qachon qayta ko'rolmaysan. Bu fojia kelajakda buyuk ezgulikni baxsh etadi... (Oxir, Axir, Oxur), hozir bizning ... (sahv, saxv)-u xatolarimiz yonyapti! Xudoga shukurki, endilikda biz hammasini yangidan boshlash imkoniyatiga egamiz. Bordi-yu, siz moddiy-ma'naviy yo'qotishlardan esankirab qolsangiz va mag'lubiyatlaringiz (alam, a'lam) qilsa, yuqoridagi parcha o'zingizni tutib olishingiz uchun ... (ruh, rux) beradi, motivatsiya beradi. Ayni vaqtda, ishni boshidan, yangichasiga boshlash uchun imkoniyat tug'iladi.

Mashq. Berilgan paronim so'zlarning ma'nosini izohlardan tanlang.

Jodi - jodu, ariq - oriq, bad - ba'd, adl - adil, artish - archish, tambur - tanbur, tib - tip, tarif - ta'rif.

O'ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISH MANBALARI

Esda tuting. Tildagi so'zlar ikki qatlamdan iborat:

- a) o'z qatlam. Bu qatlamga oid so'zlar azaldan tilimizda qo'llanib kelinayotgan ish, bosh, biz, yigirma kabi umumturkiy va o'zbekcha so'zlardir;
- b) arab, fors, Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar o'zlashma qatlamni tashkil etadi. Qalam, bahor, telefon, parta, stol kabi so'zlar shular jumlasidandir.

YANGI PAYDO BO'LGAN SO'ZLAR

Chat so'zi inglizcha chatter - "valdiramoq", "vaysamoq", "aljiramoq" so'zlaridan olingan. Internet tarmog'i orqali muayyan vaqtda aloqa qilish va shunday aloqani yo'lga qo'yishga mo'ljallangan dastur ta'minoti chat deb ataladi. Unga o'xshash fleshka, sayt, virus, antivurus, xaker, shou, mental arifmetika, sayt, monitor, klaviatura, planshet so'zlari ham bor. Bu so'zlardan o'z nutqingizda ko'p foydalanasiz. Ularning izohini bilib qo'ying, chunki zamonaviy texnologiyalarni bilish davr talabidir.

Mashq. Matnni ko'chiring. Olinma so'zlarning tagiga chizing va izohlang.
Odamlarning 10 foizi noyob talantga ega bo'ladi. Ular **intellektual** rivojlangan insonlar sanaladi. Ma'lumotlarga ko'ra daholarning aksariyati bolalik chog'idayoq o'z iste'dodlarini namoyon etishgan. O'ta talantli bolalarni **vunderkind** deyishadi. Masalan, Alisher Navoiy, Imom al-Buxoriy, Motsartlar sakkiz yoshdayoq o'z zakovatlarini bilan atrofida qilgan lol qoldirishgan.

TARIXIY VA ARXAİK SO'ZLAR

Bilib oling. Tilimizning ma'lum davrida qo'llanib, hozirgi kunda foydalanilmaydigan so'zlar tarixiy so'zlar deyiladi. Masalan: hojib (eshik og'asi), degrez (cho'yandan qozon quyuvchi), yorg'ichoq (donni maydalash va un qilish uchun ishlatilgan tosh asbob) kabi.
→ O'z o'rnini boshqa so'zga bo'shatib bergan so'zlar arxaik so'zlar deyiladi.
Masalan: payg'om(xabar), bog'ot (bog'lar, bog'li joylar), gisu (soch) kabi.

Mashq. Tilimiz tarixida ko'p qo'llangan quyidagi so'zlarga e'tibor qaratib.

Saltanat – mamlakat;

cherik – qo'shin;

sipoh – askar;

raiyyat – xalq;

dorug'a – shahar hokimi;

ziroat – dehqonchilik;

valiahd – toj-u taxt vorisi;

rabot – karvonsaroy;

suvoriy – otliq askar.

Quyidagi so'zlarni tarixiy va arxaik so'zlarga ajrating.

Izoh: Arxaik so'zlar muqobili bilan yozildi.

Ulus(xalq), qozi, muhoraba(jang), o'lpon, jadid, rasadxona(observatoriya), mudarris, oblast(viloyat), rayon(tuman), komsomol, handasa(geometriya), riyoziyot(matematika).

300-mashq. Quyida berilgan maqol va iboralarni ko'chiring. Tarixiy va arxaik so'zlarni aniqlang. Tagiga chizing.

1. Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida **ultun** (tagcharm) bo'l.
2. Bolta tushguncha, **kunda** dam olar.
3. Da'vogar sust bo'lsa, **qozi** muttaha.
4. Bo'zchining **mokisi**dek serqatnov bo'lib qolmoq.
5. Igna bilan bitadigan ishga **juvoldiz** ishlatmoq.

Mashq. Quyidagi so'zlarning izohini toping.

Sovut→
 dubulg'a→
 palaxmon→
 zirh→
 nayza→
 paykon→
 kamon→

Tarixiy va arxaik so'zlarning tagiga chizing.

1. Ov va jang manzaralari uni shu qadar qiziqtirgan ediki, otasi kelib eshik oldida **kavush** yechayotganini ham payqamadi.
2. "Shu yoshdin kitobga muhabbat qo'ysa, ulg'aygach, kitobni **ilki**dan ayirmay o'zi bilan asrab yurg'ay", deb o'yladi G'iyosiddin.
3. "Dada, ushbu suratni ko'ring: mana bu **cherik** shotidan chiqayotib qulab tushmoqda", - deb aytdi.
4. Otasi **devonxona**dan kelib, dam olganidan so'ng ba'zan kitob mutolaa qilar edi.

JOY NOMLARI TARIXI

Eslab qoling. Farg'ona so'zi hozirda vodiy va shahar nomini anglatadi. Uning kelib chiqishi to'g'risida turli xil taxminlar bor. Xalq ichida "parilar yurti", "parixona" so'zidan hosil qilingan degan rivoyatlar yuradi. Aslida, qadimda chor atrofi baland tog'lar bilan o'ralgan joy Parkana deb yuritilgan. Tovush almashishi tufayli Parkana so'zidan Farg'ona so'zi hosil bo'lgan.

Qadimiy shaharlarimiz

Qadimgi Yunoniston tarixchilari uni Marokand nomi bilan yozib qoldirganlar. Amir Temur saltanatining poytaxti sifatida jahonga mashhur bo'ldi. Unda 70 dan ortiq yirik tarixiy-me'moriy yodgorliklar mavjud. Bu yodgorliklar 2001-yilda xalqaro YUNESKO tashkilotining qarori bilan "Jahon madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi. U yosh jihatdan Buxoro bilan tengdosh. 1997-yilda uning ham 2500 yilligi nishonlandi. Shahar Sharqning durdonasi hisoblanadi. Unga nisbatan "Ming gumbaz shahri" iborasi ham ishlatiladi. Ichan qal'asi oldingi holati butunligicha saqlanib qolgan yagona shahar bo'lganligi uchun 1967-yildayoq qo'riqxona-shahar deb e'lon qilindi.

Urganch so'zining qadimiy nomlariga diqqat qiling.

Bu shahar nomining kelib chiqishi miloddan avvalgi VII—VI asrlarga borib taqaladi. "Avesto" kitobida Vurukash (Oral) dengizi bo'yida Urga (Urva) shahri bo'lganligi qayd etilgan. Tabiiy ofatlar (suv toshqini, qurg'oqchilik) tufayli Urga hozirgi Ko'hna Urganch hududiga ko'chirilgan. VIII asrgacha Gurganj nomi bilan yuritilgan. 712-yilda shahar arablar tomonidan bosib olinganidan keyin Jurjoniya deb ataldi. 1221-yili mo'g'ullar egallagandan so'ng shahar nomi Urganch shaklida yuritila boshladi. XIV asr Yevropa manbalarida shahar (Ko'hna Urganch) Urgant shaklida tilga olinadi.

Mashq. Samarqand, Toshkent, Xorazm, Shahrisabz, Buxoro nomlari izohini topib ko'chiring.

Namuna: → Xorazm – quyoshli yurt

→ Shahrisabz –

→ Buxoro –

→ Toshkent –

→ Samarqand –

Mashq. Ismlar ma'nosiga diqqat qiling. Berilgan ismlarning ma'nosini bilib oling.

Anvar -nurli yoki toleyi porloq, Akmal -yetuk, barkamol, kuchli; Iroda-istab olingan, irodali qiz, Feruza-baxtli, iqboli baland, ko'zlari moviy rang qiz. Xurshida - baxti quyosh kabi porloq.

Topshiriq. "Taxalluslar ma'nosini bilasizmi?" nomli matnni o'rganing. Ijodkorlar taxallusi mazmuniga diqqat qiling. Yana qanday adabiy taxalluslarning yaralishi haqida ma'lumotga egasiz? → Davom ettiring.

Shoir va yozuvchilar, ko'pincha, o'zlariga taxallus tanlashgan. Masalan, Navoiy o'z taxallusini "navo" — "kuy" so'zidan, Bobur esa "_____ " so'zidan olgan. Abdulhamid Cho'lponning taxallusi "Cho'lpon" — "_____ " degan ma'noni bildirsa, Abdurauf Fitratning adabiy taxallusi "_____ " degan ma'no anglatgan. Muso Toshmuhammad o'g'lining ham taxallusi o'z tarixiga ega. Yosh Musavoy kechalari tom boshiga chiqib, to'lin oyga tikilar, go'zalligiga rom bo'lar ekan. Shundanmi, o'ziga Oybek degan taxallusni tanlagan ekan. ("G'aroyib olam" kitobidan)

TERMINLAR. KASPIY TERMINLAR

Bilib oling. Ma'lum bir fan yoki kasb-hunar doirasida aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanadigan so'zlar termin (atama) deyiladi. Terminlar qo'llanilishiga ko'ra ilmiy terminlar va kasbiy terminlarga bo'linadi. Masalan:

→ masshtab, litosfera, azimut — geografiyaga oid terminlar (ilmiy);

→ mum, poshna, yelim — etikdo'zlikka oid terminlar (kasbiy).

Topshiriq. Matnni o'qing. Unda berilgan hunarlar nomi va kasbiy terminlarga e'tibor bering. Tagiga chizing.

→ Davom ettiring.

Naqqoshlik xalq amaliy san'atining qadimiy sohalaridan biridir. Naqqoshlikda ustalar tayyorlab beradigan andoza, qolip muhim ahamiyatga ega. Odatda, naqsh va bezakni malakali naqqosh ustalar chizib bergan. Bunday naqshlarni me'morchilik, gilamchilik, kashtado'zlik, kandakorlik kabi sohalarda uchratish mumkin. Naqsh yaratish ustadan did, mahoratdan tashqari katta tajriba va malakani talab qiladi. Shu sababli o'tmishda naqqoshlar xalq hunarmandlarining eng bilimdon, iste'dodli qismi hisoblangan. ("Qomus" to'plamidan)

IQTISODIYOTGA OID TERMINLAR

Biling oling. Iqtisod sohasida ishlatiladigan so'zlar iqtisodiy terminlar deb ataladi.

Topshiriq. Matnni o'qing. Ajratilgan so'zlarga e'tibor bering. Iqtisodga aloqasi bormi? Pulni chiqindiga tashlamang Tabiatga va atrofingizdagi odamlarga foyda keltirib, yana mo'maygina daromad topishni istaysizmi? Unda har joyda sochilib yotgan pulni shunchaki yig'ib oling. Axir uyingizdagi javonda, sinfxonada yoki boshqa joylarda uyum-uyum bo'lib yotgan qog'ozlar pul emasmi? Hozirda qog'ozni sotib oladigan maxsus shoxobchalar hamma joyda bor. Shoxobchalar qayta ishlash uchun zavodga topshiradi. Zavod esa qayta ishlangan mahsulotdan hojatxona qog'ozi va karton qog'ozini ishlab chiqaradi. Qog'ozni qayta ishlash tabiat muhofazasi uchun zarur. Chunki qog'oz yog'ochdan tayyorlanadi. Qog'oz ishlab chiqaradigan zavodlar har yili ming gektarlab maydondagi erkin ne'mat bo'lmish o'rmon daraxtlarini kesib olishadi. Chiqindi qog'ozlarini to'plab ham o'rmonlarni muhofaza qilasiz, ham daromad qilasiz. (Jurnaldan)

Tovar -sotish uchun chiqarilgan mahsulot.

Narx - tovar qiymatining puldagi ifodasi.

Daromad - kishi (oila)ning ma'lum vaqtda qo'lga kiritgan moddiy hamda pul tushumlari.

INTERNETGA OID TERMINLAR

Bilib oling. Ijtimoiy tarmoqlarda — internetlarda ishlatiladigan so'zlar internetga oid

terminlar deb ataladi. Biz ulardan ko'p foydalanamiz.

Mashq. Quyidagi so'zlarni ko'chiring, izohlarini yodlab oling.

akkaunt — ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchining nomi;

blogger — o'z qarashlarini internetdagi ma'lum bir platformada doimiy ravishda e'lon qiladigan kishi;

avatarka — foydalanuvchi taqdimoti sifatida tanlangan rasm;

fail — kompyuterda ma'lumot saqlovchi diskning nomlangan sohasi;

mem — mashhur bo'lib, bahsga aylangan g'oya yoki rasm;

xeshteg — ijtimoiy tarmoqlarda mavzu bo'yicha xabarlarini tarqatishda foydalaniladigan yorliq;

vab-sahifa — internetdagi hujjat va ma'lumotlar zaxirasi;

vebinar — to'g'ridan to'g'ri mashg'ulot;

dayjest — ma'lum bir mavzu bo'yicha eng qiziqarli nashrlarni yetkazadigan maqola.

ANIQ FANLARGA OID TERMINLAR

Bilib oling. Ilmiy termin (atama)lar ikki xil yo'l bilan hosil qilinadi:

a) umumxalq tilidagi so'zlardan ma'noni maxsuslashtirish orqali: qo'shish, ayirish, tekislik, ildiz kabi;

b) boshqa tillardagi ilmiy terminlarni o'zlashtirish orqali: fonetika, biznes, virus, sinus va h.k.

IJTIMOY-GUMANITAR FANLARGA OID TERMINLAR

Bilib oling. Tarix, adabiyot, tarbiya kabi fanlar kundalik hayotimizga tegishli bo'lganligi uchun ular ijtimoiy-gumanitar fanlar hisoblanadi.

Tenglama, soatsozlik, randa, miloddan avvalgi, hujayra, shpris, kashta, andava, she'r, imlo, to'g'ri to'rtburchak. →Davom ettiring.

→Ilmiy atamalar: tenglama, _____

→Kaspiy atamalar: randa, _____

QAVM-QARINDOSHLIK BILAN BOG'LIQ SO'ZLAR

Bilib oling. Shajara so'zi arabchada daraxt so'zidan olingan bo'lib insonlarning kelib chiqishi, qavm-qarindoshlik aloqalari majmuyini bildiradi.

Mashq. Maqollardagi qavm-qarindoshlikka oid so'zlarning tagiga chizing.

→Davom ettiring.

1. Bemehr qarindoshdan mehr bilgan yot yaxshi.

2. Ota — xazina, aka-uka — tayanch, do'st esa har ikkalasi.

3. Ota-bola — bog', biri — gul (ko'chma ma'noda), biri — bog'bon(ko'chma ma'noda).

4. Onalik (Onasi bor) uyning ori bor, Otalik (Otasi bor) uyning — zari.

5. Amma keldi — hamma keldi.

6. Xola — ikkinchi ona.

IBORALAR

Bilib oling. Ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplar ibora deyiladi. Masalan: dimog'i chog' bo'ldi (xursand), yuzini yerga qaratmoq (uyaltirmoq), qo'li baland kelmoq (g'olib chiqmoq) va h.k.

→ Iboralar nutqni ta'sirchan, jozibali qiladi.

MAQOLLAR

Bilib oling. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi.

- Ular nutqqa tayyor holda olib kiriladi.
- Ularda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo'nda bo'lishi kerak.
- Maqollar fikrni ta'sirchan, bo'yoqdor qilib ifodalaydi.
- Nutqda maqollardan o'rinli foydalanish so'zlovchining mahorati hisoblanadi.
- Bejiz "Ilm o'lchovi - aql, zehn o'lchovi - naql", deyilmaydi.
- Maqollar, asosan, bir, ikki misrali bo'ladi.
- Ularda antonimlardan keng foydalaniladi.

HIKMATLI SO'ZLAR

Bilib oling. Buyuk, taniqli shaxslarning ibratomuz fikrlari hikmatli so'zlar deyiladi.

Maqoldan farqi ham shunda: muallifi bo'ladi.

→ O'xshashligi - nasihat ruhidali.

1. Muxtasar (qisqa) ifodalangan o'tkir fikrlar hayotni yaxshilashga ko'p xizmat qiladi. (Sitseron, Yunon faylasufi)
2. Teran fikrlar aqlga o'rnashgan po'lat mixdek, ularni sug'urib bo'lmaydi. (Deni Didro, fransuz yozuvchisi)
3. Donolardan o'rganish ajoyib natija beradi, darvoqe, ularda nimadir uchraydiki, u miyanga qattiq o'rnashib, qon va jismingga o'tadi. (Y. Komenskiy taniqli pedagog)
4. Bobolarning hikmati Hayotga yorug' yo'ldir. (E. Vohidov)
5. Hikmatli gaplarga quloq solmoq darkor, Quloq solmoq darkor xalqning so'ziga. (A. Oripov)

Quyidagi hikmatli so'zlarning mualliflarini toping.

1. Badantarbiya bilan mashg'ul bo'linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq shart. (Ibn Sino)
2. Ishda oshiqqan ko'p toyilur,
Ko'p toyilgan ko'p yiqilur. (Navoiy)
3. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jaf o'lsa, jaf topqusidir. (Bobur)
4. Avvalo, maqsad va g'oyani aniq belgilab oling, qolgan ishlar o'z-o'zidan bo'laveradi.
(Maxatma Gandi)
5. Igna bilan chiqar oyoqdan tikan, Igna tikan bo'lsa, bu yomon ekan. (X. Dehlaviy)
6. Kuch adolatdadir. (Amir Temur) —
7. Nodon do'st - eng xavfli dushman. (Lafonten)
8. Har bir kishining fe'li va xulq-atvori o'z oldiga qo'ygan maqsadiga intilishida namoyon bo'ladi.
(Gyote)

Yunon faylasufi Arastuning quyidagi hikmatlariga diqqat qiling, shaxsiy mulohazangizni bildiring.

- Izzat tilasang, iffatli bo'l.
- Ulug'lik tilasang, muloyim bo'l.
- Zafar tilasang, adolat yo'lini tut.
- Qadr tilasang, rostgo'y bo'l.
- Jannat tilasang, sabr qil.
- Ilm o'rganmoqchi bo'lsang, jidd-u jahd qil.

TERMINLAR, KASB-HUNAR LEKSIKASI VA IBORALAR USLUBIYATI

Terminlar ilmiy va ilmiy-texnik tushunchalarning nomlari sifatida ilmiy uslubga xoslangan so'zlar yoki so'z birikmalaridir. Ular ilmiy uslubda tavsiflash va nomlash vazifalarini bajaradi va bu uslubning o'ziga xos ko'rsatkichlari sanaladi. Terminlar badiiy va publitsistik uslublarda tasviriy-uslubiy vosita sifatida qo'llanishi mumkin. Ilmiy va ilmiy-texnik jarayon, ishlab chiqarish

manzaralarini tasvirlash, muayyan soha bilan bog'liq shaxsning nutqiy xarakteristikasini yaratish kabi badiiy maqsadlar bilan terminlar mazkur uslublarda qo'llanishi mumkin.

→ Mamlakatimizning turli hududlarida qadimdan kulolchilik, duradgorlik, etikdo'zlik, gilamchilik, kashtachilik, tikuvchilik, naqqoshlik, temirchilik, pichoqchilik kabi bir qancha kasb-hunar tarmoqlari rivojlanib kelgan. Bu sohalarga oid maxsus tushunchalar, tabiiyki, o'ziga xos so'zlar bilan nomlangan, bunday so'zlar kasb-hunar leksikasi nomi bilan umumlashtiriladi. Ana shunday leksika(so'zlar yig'indisi), albatta, kasbiy-ilmiy matnlarning asosiy unsurlaridir.

→ Ayni paytda kasb-hunarga oid so'zlar va iboralar badiiy va publitsistik uslublarda qo'llanishi va tegishli sohaga daxldor hududiy o'ziga xoslikni ta'kidlashga xizmat qilishi mumkin.

→ Iboralar tilning eng muhim tasviriy-uslubiy vositalaridan biridir.

Ular nutq uslublarida turli xil vazifalarni bajaradi. Xususan, ilmiy va rasmiy uslublarda ko'pincha muayyan tushunchalarni nomlash uchun qo'llanadi. Masalan, qo'l qo'yimoq, xulosaga kelmoq, qarshi chiqmoq, ovoz bermoq, qo'l ko'tarmoq kabi iboralar bunga misol bo'la oladi. Iboralarning aksariyati obrazli tafakkur mahsuli bo'lib, kuchli ko'chma ma'no ifodasi bilan, yorqin emotsional-ekspressivligi bilan tilda yashaydi. Masalan: tomdan tarasha tushganday, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, oyog'ini qo'liga olmoq, o'pkasini qo'ltiqarmoq, chumchuq pir etsa, yuragi shir etmoq, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmoq kabi.

O'zbekcha kurash bilan bog'liq atamalarga diqqat qiling.

Dunyo tillariga kirib ulgurgan o'zbek kurashi terminlari (masalan, yonbosh, halol kabi)ni sanang. Polvonlarda kurash hadislarining o'z nomi bor, hammasini esa «chil» deyishadi. Chilni ko'p biladigan polvonni «ilmi ko'p, amali ko'p» deb ham atashadi. Chillarning ba'zi birlari tojikcha, ba'zi birlari o'zbekcha. Masalan, «pushburdor» degan chil bor, bu – yelkadan oshirib otish usuli.

«Morpech» chili – raqibining oyog'ini o'z oyog'ing bilan ilondek chirmab olib, burab yiqitish.

O'zbekcha chillardan, «tuya chil» – mayda-chuyda harakat qilib o'tirmay, raqibini to'g'ridan to'g'ri oyoq qo'yib ag'darish usuli. Chilning «ildirish», «qoqma», «siltov», «yotib otar», «cho'nqaytma» degan usullari ham bor. (Sh. Xolmirzayev)

Berilgan so'zlarning qaysi kasb-hunarga oidligini aniqlang.

→ Qolip, betlik, poshna, charm, shirach _____

→ Sandon, dam, ko'ra, bosqon, bolg'a _____

→ Andava, mola, chaplama suvoq _____

→ Iskana, randa, shovun, tesha _____

Topshiriq 2. Gaplarni o'qing. Iboralar o'rtasidagi ma'nodoshlik va zid ma'nolilikka e'tibor bering. → Og'zaki izohlang.

1. Bu ishni kim qilsa-da, o'ziga to'q odam qilibdi! Qo'li uzun odam qilibdi! (Tog'ay Murod)

2. Uylanay desa, ba'zilarining qo'li kalta: ota-ona qari, chimildiq osguncha, ularni boqib turish kerak. (Erkin A'zam)

3. Endi mulla Fazliddin bo'yni yo'g'on beklardan ko'rgan yomonliklarini aytib bersa, Bobur uni himoyasiz tashlab qo'ymasligi kerak. (P. Qodirov)

4. Miryoqub bo'lsa, nima deyishga hayron bo'lib, boshi qotib o'tirardi. (Cho'lpon)

5. Nilufar miyasi g'ovlab ketayotganini sezib, sanchib og'rigan chakka tomirlarini siladi, bir nuqtaga tikilib, uzoq o'tirdi. (O. Yoqubov)

6. Bu ikkala qarindoshim bir-biriga joni achiydigan, bu qadar mehrli ekan-u, men nima xayollarga borib yuribman! (Murod Mansur)

7. Sur'atga odamning ichi achiydi, har holda do'stimiz, hamshahrimiz. (Erkin A'zam)

8. Ikki g'arib bir yoqadan bosh chiqargan edik. (Oybek)

9. Nega qo'llamaylik, nega bir jon-bir tan bo'lmaylik?! (Murod Mansur)

KO'CHIMLILIK

Esda tuting. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tuganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko'chma ma'no emotsional-ekspressiv

bo'yoqdorlik kasb etadi. Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik-metafora, umumiylik-sinekdoxa, aloqadorlik-metonimiya kabi) asosida tasviriylilik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Ko'chimlarning metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi bir necha turlari farqlanadi.

1. Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Agar ko'chma ma'noda qo'llangan so'z sifat yoki fe'l so'z turkumida bo'lsa, u metafora usulida ma'no ko'chgan hisoblanadi. Masalan, qozonning qulog'i birikmasidagi quloq so'zining ma'nosi metaforik ma'no, chunki u doimiy metaforaga aylangan, ya'ni turg'unlashib, mazkur tushunchaning nomiga aylangan.

Eslatma. Metafora qanchalik yangi, tutilmagan bo'lsa, shunchalik ifodali bo'ladi. Mohir so'z ustalari o'z asarlarida so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orqali ifodali, obrazli nutqning go'zal namunalarini yaratadilar. Quyidagi misolda buni ko'rish mumkin:

Manglayi tirishar zinapoyaning,

Panjara **kuylay**di misoli chiltor.

Terlab ketganini ko'rsang oynaning,

Hamma narsa seni **kutar** intizor. (Iqbol Mirzo)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ko'chma — metaforik ma'noda qo'llangan.

2. Metonimiya narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi muayyan aloqadorlik asosida birining nomi bilan ikkinchisining atalishidir.

Masalan, Dasturxonga qarang jumlasidagi dasturxon so'zi metonimik qo'llangan. Chunki darsturxondagi noz-ne'matlarga deyish kerak edi. Bu ko'chish so'z qisqartirish ham deyiladi. Yozuvchining mahorati bilan badiiy nutqdagi metonimiya tufayli yuzaga kelgan ifodalilikka e'tibor bering:

Bu yerga termulib parishon dunyo (To'liq holati: "dunyo odamlari")

To'g'rilab oladi qo'lda soatin. (A. Oripov)

3. Sinekdoxa narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi butun-bo'lak munosabati asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chirishdir. Masalan, Bu kishi tirnoqqa zor jumlasidagi tirnoq so'zi sinekdoxa yo'li bilan «farzand» ma'nosida qo'llangan.

Mashq. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olingan parchani o'qing va ko'chimlarni aniqlang, ularning ifodalilik jihatidan qimmatini izohlang.

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi(metafora). Yana tabiatning dildiragan tanlariga (metafora) iliq qon yugurdi(metafora)... Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari (metafora) qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari (metafora) kuldi(metafora), o'zlari horg'in-horg'in (metafora) oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira (metafora) ilgari bosadilar(metafora). Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma (metonimiya) ildizidan yana bosh ko'tarib(metafora) chiqdi...

Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida (metafora) yonboshlashni (metafora) muncha yaxshi ko'rar ekan (metafora) bu ko'kat!

Mashq. Gaplarni o'qing. Ko'chimlarni aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta'minlashdagi ishtirokini izohlang.

1. Ammo siz hurmatlilarga ma'lumdirki, bizning shul Otabekdan o'zga farzandimiz bo'lmay, dunyoda o'zimizdan keyin qoldiraturg'an tuyoqimiz (sinekdoxa) va ko'z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir. (Abdulla Qodiriy)

Qo'shimcha fikr: Tuyoq so'zi (qismi) orqali, odatda, chorva mollari (butun) tushuniladi.

Masalan, To'rtta tuyoqni sotib kontraktingni to'laymiz. (Qism orqali butun)
 Ammo bu so'zning insonga nisbatan qo'llanilishi Qodiriyning mahorati edi. Albatta, asar qahramoni, Otabek, hayvon bolasi emas, inson bolasi. Mantiq buzilganday-a? E'tibor bering: odamzod bolasini erkalab "bo'talog'im", "toylog'im" (toychoq'im), "qo'zim" singari so'zlar bilan erkalaydi. Bu bilan bolasi hayvonga aylanib qolgani yo'q, shunchaki bolasini gijinglagan toyga, yoqimtoy bo'taloqqa, mo'ltillagan qo'zichoqqa o'xshatgan, xolos. Toychoq, qo'zichoqda esa tuyoq bor. Tuyoq orqali hayvon anglashilsa, nega Otabekka bu so'z qo'llangan ekan? Hamma gap o'tonaning erkalab gapirishida. Axir, voyaga yetgan farzand o'sha ota-ona tomonidan "mol", "eshak", "ho'kiz" deb ham haqoratlanadi-ku. Bu bizning tilimizda bor narsa. Xulosa shuki, mazkur gapdagi tuyoq so'zi sinekdoxa orqali ma'nosi ko'chgan. Oddiygina: "ko'chma ma'nodan ko'chma ma'noga qadar".

2. Yuzlari tandirdan endi uzilgan nonday qizil, mo'ylovli bir odam uloq boshiga (metafora→joylashuv o'rni) keldi. Ana shu mo'ylov (sinekdoxa→qism orqali butun) bakovul bo'ldi. (Tog'ay Murod)
3. Vodoprovod yonidagi oshrayhondan bir shox sindirib olib, kaftiga urdi. Yoqimli hid dimog'ini qitiqladi. (metafora→harakat o'xshashligi) (O'. Umarbekov)
4. Kamarlar odatda tog'ning belida (metafora→joylashuv o'rni), shamoldan pana, atrof yaxshi ko'rinadigan yerda bo'ladi. (Sh. Xolmirzayev)

Mashq. She'rni ifodali o'qing. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali nutq ta'sirchanligi ta'minlanishiga diqqat qiling. Izoh: Metafora→harakat o'xshashligi

Atirgul

Gullar oqshom chog'ida, o'yga tolar emishlar, (Gul xayol surmaydi)
 Quyosh botgan tarafga, qarab qolar emishlar. (Gullar kun botarga o'zgacha ruhda qarab qolmaydi)
 So'ng barchasi subhidam sal iymanib, nozlanib, (Gul iymanmaydi (uyalmaydi), nozlanmaydi)
 Quyoshni kutar emish, sharq tomonga yuzlanib. (Quyoshni aqlan his etib kun chiqarga qarab kutmaydi)
 Faqatgina atirgul, sog'inch dog'lab ko'ksini, (Atirgul, hatto, insonning ham ko'krak qafasi dog'lanmaydi)
 Quyoshi ketgan yo'ldan olmas emish ko'zini. (Atirgul, quyosh nuri tushgan yo'lga termulmaydi)
 Ters tomondan kun chiqqach, to'lib shabnam — ko'z yoshga, (Atirgul yig'lamaydi)
 Hayrat-u araz bilan qayrilarmish quyoshga. (Mirzo Kenjabek) (Atirgul hayratlanmaydi ham, arazlamaydi ham)
 Xulosa: Jonlantirish san'ati orqali go'zal tashbeh yuzaga kelgan.

Mashq. Gaplarni o'qing. Ularda metonimiya va sinekdoxa yo'li bilan hosil bo'lgan ko'chma ma'noli so'zlarni toping va izohlang.

1. Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo'lingizga suv berib, qizingizning choklarini tikishib, xizmasingizni qilib yotardim! (Cho'lpon)
 Ko'chim turi: _____
2. Toki g'olib ekan muzaffar o'lka, Sha'niga she'r aytmoq shoirga odat. (A. Oripov)
 Ko'chim turi: _____
3. O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa, Oltin boshning kalla bo'lgani shudir. (E. Vohidov)
 Ko'chim turi: _____
4. Balki, tush ko'rganday qolursiz hayron, Eshitib Toshkentning sabr-u toqatin. (A. Oripov)
 Ko'chim turi: _____
5. Sevgidan yetim-u umrdan yarim, Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak. Abadiy firoqni, hayhot, do'stlarim, Abadiy visol deb bildi kelinchak. (A. Oripov)
 Ko'chim turi: _____
6. Bashirjon yoniga ag'darildi: "Rahmatli chol to'g'ri aytarkan. Undan-ku, bir tirnoq — men qoldim. Yaxshimi-yomonmi, har qalay, ismini familiya qilib yuribman". (N. Aminov)
 Ko'chim turi: _____

KINOYA

Nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini oshirishda kinoya ham alohida o'rin tutadi. Bunda so'z yoki kinoya so'zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaga kesatqli, pichingli, istehzoli, umuman, subyektiv-kulgi aralash munosabatini ifodalash vositalaridan bo'lganligi uchun ham so'z yoki iboraning to'g'ri ma'nosiga zid, ya'ni inkor, emotsional-ekspressiv bo'yoqli ma'no voqelanadi. Bunday kinoyaviy ma'noning voqelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiya ham alohida rol o'ynaydi.

Masalan, Bugun jug'rofiya o'qituvchisi darsga kelmadi. Xomtok qilaman deb so'ridan yiqilib, oyog'ini sindiribdi. Ajoyib «xushxabar»dan keyin bir zumda sinf bo'shadi-qoldi (Said Ahmad) parchasida xushxabar so'zi "shumxabar" tarzidagi kinoyaviy ma'noda qo'llangan.

Kinoyada so'z yoki iboraning tildagi ma'nosi bilan nutqda reallashgan ko'chma ma'nosi o'rtasidagi zidlik kuchli ta'kid oladi va shunga ko'ra birdaniga diqqatni jalb etadi.

→ Kinoyaviy qo'llangan so'z yoki ibora og'zaki nutqda o'ziga xos, farqli intonatsiya bilan aytilsa, yozuvda ko'pincha qo'shtirnoq bilan ajratiladi. Xulosa: Kinoya – o'z ma'nosiga teskari ma'no ifodalaydigan termin.

Mashq. N. Mahmudov va Y. Odilovning "O'zbek tili enantioseмик so'zlarining izohli lug'ati"da tavsiflangan bir so'zda namoyon bo'lgan zid ma'nolarga diqqat qiling. O'z ma'nosiga zid holda ishlatilgan nutqiy ko'chma ma'no asosida voqelangan kinoyani izohlang.

DONO→

1. Aqlli, har narsani biladigan: Donolar dunyoni demish ko'pkari, Boqing, O'zbekiston dadil ot soldi! (A. Oripov)
2. Aqlsiz, ko'p narsani bilmaydigan: Ammo oyog'ining ostidan narini ko'rmaydigan, vaholanki, hayotdan faqat nuqson izlaydigan ayrim "dono" (aslida, ovsar, ahmoq deyilmoqchi)vaysaqilar, afsuski, bor. (O'. Usmonov)

KAMTARIN→

1. Juda kamtar, xokisor: Kamtarin bo'l, hatto bir qadam o'ta ko'rma g'urur ostonasidan. Piyolani inson shuning-chun O'par doim peshonasidan. (E. Vohidov)
2. Juda maqtanchoq: Agar Kesakpolvonni nazarda tutib, shunday desangiz, adashasiz. Chunki u "kamtarin" (aslida, kekkaygan deyilmoqchi) banda qudrat bobida o'zidan oldin faqat Asadbekni ko'radi. (Tohir Malik)

XUSHBO'YLIK→

1. Bir kun burun shovullab yog'gan yomg'ir va tong tarovati bois olam bag'oyat chiroyli hamda tiniq, havo esa musaffo va xushbo'y edi. Bu xushbo'ylikni rasadxona ortidagi tog'dan yelayotgan mayin shaboda olib kelardi. (Nabi Jaloliddin)
2. Qo'lansa hidlilik, badbo'ylik: Bulardan bir qadoq sovun olmoq uchun yo dimog'ni ro'mol bilan bog'lash kerak, yoki burunni yeng ichiga olib turish kerak. Dunyodagi hidlar ichida sovun bozorining hididay "xushbo'ylik" (aslida, badbo'ylik deyilmoqchi) jahonda bo'lmasa kerak. (G'afur G'ulom)

SHAROFAT→

1. Xosiyat, yaxshilik: Xolisan aytganda, shularning sharofati bilan qishda loyi, yozda tuprog'i ko'pchib yotadigan qo'rg'on ko'chasi bir tekis qilib asfaltlandi, gaz quvuri keldi, kechalari chiroq o'chib qolmaydigan bo'ldi. (Erkin A'zam)
2. Kasofat, yomonlik, kasr: Sharif Vallomatning "sharofati" (aslida, kasofati deyilmoqchi) bilan ishdan ketib, tish kavagiga bekitganini ham yeb-bitirib, hattoki bir-ikkita gilamlarini ham sotib, shipshiydam uyda xotini-yu uchta bolasi bilan g'arib bo'lib o'tirganini bilardi. (Murod Muhammad Do'st)

HUSNIXAT→

1. Chiroyli yozuv: U kishi Ufa shahrida ta'lim olgan muallimani yollab onamni o'qitgan ekanlar. Men oyimning pinjiga suqilib o'tirib, husnixat mashq qilardim. (Said Ahmad)

2. Xunuk yozuv, badxat: Professor Mannopov vrachlarga xos "husnixat" (aslida, dabdala yozuv deyilmoqchi) bilan bloknotiga lotin alifbosida yozib qo'ydi. (Said Ahmad)

NUTQDA O'RINLI VA NOO'RIN SO'ZLAR

Bilib oling. Nutqda so'zlarni noo'rin qo'llash holatlari uchraydi. So'zlarni anglash, farqlash, tanlash va qo'llash bilim va farosatni talab qiladi. O'rinli va noo'rin qo'llashni aniqlash uchun ham bilim, farosat va mantiqiy tafakkur taqozo etiladi. Masalan, nutqda „Kechirasiz, mening joyimga o'tirib olibsiz“ gapida o'tirib olmoq so'zi yoki „Ikki kishi talashib qolishibdi“ jumlasida talashmoq so'zlari noo'rin qo'llangan. Ular o'rniga gaplarni „Kechirasiz, bu joyni men band qilgan edim“, „Ular tortishib qolishibdi“ deyish farosatdan darak beradi.

NUTQDAGI „TAQIQ“LAR

Bilib oling. Madaniy nutqning o'z qoidalariga bor. Nutqda ayrim tushunchalarni jamiyat madaniy me'yorlariga ko'ra ochiq aytish mumkin emas. Bu nutqiy „taqiq“ (u fanda polineziya tilidan olingan „tabu“ so'zi bilan nomlanadi) deyiladi. Ular o'rniga „yumshoq“, „qog'ozga o'ralgan“, ya'ni madaniy ifodalar qo'llanadi. Masalan qo'rquv asosida (chayon so'zi o'rnida gajak, o'lmoq so'zi o'rnida ketmoq) uyat asosida (tug'moq – farzandli bo'lmoq) va hurmat asosida (sen – siz, bor – boring kabi) so'zlari qo'llanadi.

EVFEMIZM VA DISFEMIZMLAR

Bilib oling. Madaniy nutq sohibi o'z fikrini chiroyli va kishi ko'ngliga og'ir botmaydigan qilib ifoda etadi. Fikrni og'ir botmaydigan, tinglovchiga malol kelmaydigan qilib ifodalash vositalari evfemizm (grek tilida bu so'z „yumshoq gapirmoq“ ma'nosida qo'llangan) deyiladi. Masalan, yomon bo'libdi degandan ko'ra yaxshi bo'lmabdi deyish yoki kasal ifodasidan ko'ra mazasi yo'q deyilsa, kishi ko'ngliga qattiq botmaydi.

→ Evfemizmni o'rinli qo'llash kishining madaniyatligini bildiradi. Turmush o'rtog'ining ismini aytmaslik (masalan, dadasi, dadajonisi, oyisi deyish yoki katta farzandining ismi bilan chaqirish, masalan, Umidning dadasi, Umid o'g'lingiz bozorga bormayapti), sizlash kabilarni ham evfemizmga misol qilish mumkin.

→ Evfemizmning aksi disfemizm (grek tilida bu so'z „qo'pol gapirmoq“ ma'nosida qo'llangan) deyiladi. Masalan, yomon bo'libdi tushunchasi uchun qo'llangan rasvo bo'libdi yoki kasal tushunchasi uchun qo'llangan dard uribdi ifodalari disfemizmga misol. Nutqda disfemizmni ko'p qo'llash kishining madaniyatsiz ekanini ko'rsatadi.

→ Demak, disfemizm va evfemizm ikki chekkada, betaraf ifoda esa ular o'rtasida turadi: Masalan, joni chiqdi(disfemizm) ↔ o'ldi(betaraf ifoda) ↔ joni uzildi(evfemizm)

Yostiqdosh, ojiza, turmush o'rtog'i, jufti halol, umr yo'ldoshi, zavj(a), rafiq(a), xotin (er), onasi, dadasi, bu kishim;

→ „Yumshoq“ ifodali so'z (birikmalar): _____

→ Betaraf ifodali so'zlar: _____

→ Ochiq ifoda: _____

Farzandlik bo'ldi, yengillashib oldi, ko'zi yoridi, qutulib oldi;

→ „Yumshoq“ ifodali so'z (birikmalar): _____

→ Betaraf ifodali so'zlar: _____

→ Ochiq ifoda: _____

Qazo qildi, halok bo'ldi, jon taslim qildi, o'ldi, joni uzildi, rixlat qildi, omonatini topshirdi, egasiga kerak bo'ldi, yer tishladi, qotdi, yer yutdi, juvonmarg bo'ldi;

→ „Yumshoq“ ifodali so'z (birikmalar): _____

→ Betaraf ifodali so'zlar: _____

→ Ochiq ifoda: _____

SO'Z VA IBORA TENG EMAS

Bilib oling. So'zlar uslubiy bo'yoqli yoki bo'yoqsiz bo'ladi. Iboralar esa har doim bo'yoqdor. Ibora o'zi ifodalayotgan tushuncha bilan so'zga teng, lekin bo'yoqdorligi sababli bu tenglik buziladi. Shuning uchun iborani so'z bilan har doim ham almashtirib bo'lmaydi. → Ibora boshqa tilda aynan muqobilga ega emas. O'zlashma ibora bo'lmaydi. Iboralarni ko'p qo'llash til bilimi va nutqiy salohiyat yuqoriligidan dalolat beradi.

MAQOLNI O'RINLI QO'LLASH

Bilib oling. Maqol – xalq og'zaki ijodi janri, shu bilan birga, til birligi ham. U – ixcham, mazmuniy va ta'sirchanlik ko'lamini baland ifoda. Maqollar biror nutq vaziyatiga xos bo'ladi, shuning uchun, ko'pincha, bir-birini inkor etadi. Misol, Yaxshilik qil, umidvor bo'l. – Yaxshilik qil – unut. → Maqollar evfemizm vazifasini ham bajaradi.

1. Gap bilan kerilma, ish bilan keril. ↔ Ish bilganga bir tanga, gap bilganga ming tanga.
2. Tekin bo'lsa, mix yut. ↔ Tekin tomoq tish sindirar.
3. Yomon ko'rgan kishingga yomon narsangni ber. ↔ Yomonlikka yaxshilik mard kishining ishidir.
4. Pulni pul topar, Ketmonni ahmoq chopar. ↔ Ketmon chopdim – non tishladim.

TASVIRIY IFODA – KO'TARINKI NUTQ VOSITASI

Bilib oling. Tasviriyl ifoda – narsalar nomining bo'yoqdor muqobili bo'lgan birikma.
→ U uslubiy chegaralangan, ko'proq publitsistikaga xos: 1. Yoshlarning aql gimnastikasiga qiziqishlari ortib bormoqda (shaxmat yoki matematika).
→ Tasviriyl ifoda tushunchani bildirishi bilan so'zga teng, lekin bo'yoqdorligi bilan farqlanadi. 2. Oltin qanot qushlar uchsini (samolyot). Eslatma. Bitta predmetga ikki va undan ortiq tasviriyl ifoda qo'llanilishi mumkin:
Maqol– so'z ko'rki, otalar so'zi, fikr qaymog'i
Eslatma. Ikki predmetga bitta tasviriyl ifoda qo'llanilishi mumkin, ya'ni tasviriyl ifodaga ham omonimlik xos: Bahor elchisi – qaldirg'och, boychechak

- 1) g'azal mulkingning sultoni → Navoiy
- 2) millatni birlikka chorlagan shoir → Turdi Farog'iy
- 3) o'zbek romanchiligi maktabining asoschisi → Qodiriy
- 4) o'zbek she'riyatida vafo va sadoqat timsoli → Zulfiya
- 5) qisqa hikoyalar ustasi → Abdulla Qahhor
- 6) vaqtga haykal qo'ygan shoir → G'afur G'ulom

LUG'ATSHUNOSLIK

Bilib oling. So'zlari alifbo tartibida joylashtirilgan, turlicha izohlar berilib, kitob shakliga keltirilgan to'plam lug'at deyiladi. Lug'atlarning turi ko'p. Masalan, so'zlarning to'g'ri yozilishi imlo lug'atida, ma'nosi izohli lug'atda, boshqa tildagi shakli tarjima lug'atida beriladi. Undan tashqari, ensiklopedik lug'atlar, sinonim, antonim, omonim, paronim so'zlar lug'ati ham bor.

Mashq. Quyidagi xato yozilgan so'zlarni "Imlo lug'ati" asosida to'g'rilab ko'chiring.
Alangga (alanga), abadiiy (abadiy), butkil (butkul), voqia (voqea), ishtimoiy (ijtimoiy), qiziqgan (qiziqqan), mikraskop (mikroskop), momaqaldiroq (Imlo bo'yicha to'g'ri), mumkun (mumkin), muhum (muhim), nixoyat (nihoyat), ovinmoq (ovunmoq), prizdent (prezident), sovol-jovob (savol-javob), naqorat (naqarot), holol (halol), xashorat (hasharot). Izoh: Qavs ichida to'g'rilangan variant berildi.

Mashq. A.Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" kitobidan olingan parchani ko'chiring. So'zlarning izohiga e'tibor bering.

Balandlamoq, yuqorilamoq, ko'tarilmoq, o'rlamoq.

Baland (yuqori) tomon yo'nalmoq. Balandlamoq, yuqorilamoq so'zlarida shu ma'no aniq sezilib (ifodalanib) turadi. Ko'tarilmoq, umuman, pastki nuqtadan tikkaga qarab yo'nalishni bildiradi.

Baland (yuqori) tomonga qarab yo'nalish ma'nosi esa ma'lum so'z yoki boshqa vositalar yordamida reallashadi. O'rlamoq kam qo'llanadi.

IZOHLI LUG'AT

Bilib oling. So'zlarning ma'nosi keng izohlanadigan lug'at izohli lug'at deyiladi.

Mashq. "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi havas va hasad so'zlariga berilgan izohni o'qing.

HAVAS [arabcha - aqlini yo'qotish, ehtiros; mayl, ishtiyoq; biror narsaga g'oyat berilganlik, kuchli istak] 1. Qiziqish, zavq hisi; shunday his-tuyg'uli munosabat. 2. Biror ish-faoliyat, kasb-korga bo'lgan rag'bat, intilish, istak, mayl.

HASAD [arabcha - rashk, ko'rolmaslik, qizg'anish, suq, baxillik] kimsaga xos, unga tegishli narsa, fazilat va shu kabilarni ko'rolmaslik, xush ko'rmaslik his-tuyg'usi.

Mashq. X. Bekmuhamedovning "Tarix atamalarining izohli lug'ati"dan olingan parchani ko'chiring. So'zning ma'nosiga diqqat qiling.

KARVONSAROY — Sharq, O'rta Osiyo, Kavkaz shaharlarida va savdo yo'llarida savdogarlar, sayyohlar va boshqa yo'lovchilar qo'nib o'tishlari uchun qurilgan joy — robot bo'lib, unda mehmonxona, oshxona, otxona, ombor, oziq-ovqat, ulov uchun yem-xashak mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoning katta shaharlarida bir nechtdan karvonsaroylar bo'lgan.

IMLO LUG'ATI

Bilib oling. Imlo (orfografik) lug'atida tilimizdagi so'zlarning to'g'ri yozilishi ko'rsatiladi.

So'zlar alifbo tartibida beriladi. Yurtimizda imlo lug'atlari bir necha bor nashr etilgan. Eng oxirgisi 2013-yilda chop etilgan imlo lug'atidir. Unda 85000dan ortiq so'zning yozilishi qayd etilgan.

avf→afv

ta'magir→tamagir

taasuf→taassuf

kish-kishlamoq→kishkishlamoq

inshoat→inshoot

kasbkor→kasb-kor

entsiklopediya→ensiklopediya

baynalminal→baynalmilal

jangovor→jangovar

naqorat→naqarot

ochiqdanochiq→ochiqdan ochiq

poyafzal→poyabzal

Avg'oniston→Afg'oniston

